O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGI
SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI
“RAQAMLI IQTISODIYOT” KAFEDRASI

“RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA IJTIMOIY-IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH MASALALARI”

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA, MATERIALLARI TO‘PLAMI

(I-QISM)



(2026-yil 6-noyabr)

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“RAQAMLI IQTISODIYOT” KAFEDRASI

“RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA IJTIMOIY-IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH MASALALARI”

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MATERIALLARI TO‘PLAMI

(I-QISM)

(2026-yil 6-noyabr)

SAMARQAND – 2026

РЕСПУБЛИКА УЗБЕКИСТАН
МИНИСТЕРСТВО ОБРАЗОВАНИЯ И НАУКИ

САМАРКАНДСКИЙ ИНСТИТУТ ЭКОНОМИКА И СЕРВИСА

КАФЕДРА “ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА”

«ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ»

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ

СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ

(ЧАСТЬ-I)

(6-ноябрь 2026 г.)

САМАРКАНД – 2026

UO’K: 330.341.1:004
M 54
KBK: 65.9(5O‘)ya431

Raqamli iqtisodiyot sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalalari. / Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. 2026-yil 6-noyabr kuni. Samarqand, SamISI, 2026. – 250 bet.

Nashr uchun mas’ullar:

Q.J.Mirzayev – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
O.M.Pardayev – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
E.Shavqiyev – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor.
S.A.Isxakova – iqtisod fanlari bo’yicha falsafa doktori, dotsent.
F.U.Anarbayeva – iqtisod fanlari bo’yicha falsafa doktori, dotsent.
Sh.I.Artikova – iqtisod fanlari bo’yicha falsafa doktori, dotsent.
F.F.Ulug’murodov – katta o’qituvchi.

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi: D.B.Egamkulov – assistent o’qituvchi.

Sahifalovchi: I.E.Xonimqulov

Mazkur to‘plamda Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasi tomonidan 2026-yil 6-noyabr kuni tashkil etilgan an’anaviy respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari o‘rin olgan. Anjuman “Raqamli iqtisodiyot sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalalari” mavzusiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda raqamli iqtisodiyot sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni oshirishning ilmiy-nazariy va metodologik yondashuvlari, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish asosida xizmat ko‘rsatish sohasi samaradorligini yuksaltirish masalalari, muammo va yechimlari, raqamli texnologiyalar asosida hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkoniyatlari, sohani rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari, shuningdek, raqamli texnologiyalardan foydalanish asosida tarmoqlar va sohalarda ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni oshirishning dolzarb masalalari bo‘yicha professor-o‘qituvchilar, tayanch doktorantura izlanuvchilari, mustaqil tadqiqotchilar, magistrantlar, talabalar va soha mutaxassislarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatga molik tezislari o‘rin olgan.

В данном сборнике представлены материалы традиционной республиканской научно-практической конференции, организованной кафедрой «Цифровая экономика» Самаркандского института экономики и сервиса 6 ноября 2026 года. Конференция была посвящена теме «Вопросы повышения социально-экономической эффективности в цифровой экономике», которая включала научно-теоретические и методологические подходы к повышению социально-экономической эффективности в цифровой

экономике, вопросы, проблемы и решения повышения эффективности сектора услуг на основе развития цифровой экономики, возможности повышения социально-экономической эффективности в регионах на основе цифровых технологий, стратегические направления развития сектора, а также диссертации научно-теоретического и практического значения профессоров, докторантов, независимых исследователей, магистрантов, студентов и специалистов в области актуальных вопросов повышения социально-экономической эффективности в секторах и отраслях на основе использования цифровых технологий.

This collection presents materials from the recurring national scientific-practical conference organized by the Department of Digital Economy at the Samarkand Institute of Economics and Service on November 6, 2026. The conference focused on the theme "Issues of Enhancing Socio-Economic Efficiency in the Digital Economy." It covered scientific-theoretical and methodological approaches to improving socio-economic efficiency; challenges and solutions for increasing efficiency in the service sector through the development of the digital economy; opportunities for boosting regional socio-economic efficiency via digital technologies; and strategic development directions for the sector. The collection also includes scholarly contributions—ranging from theoretical to practical in nature—from professors, doctoral candidates, independent researchers, graduate students, undergraduates, and industry specialists, all addressing critical aspects of enhancing socio-economic efficiency across various sectors and industries through the use of digital technologies.

The materials in this collection offer evidence-based proposals and recommendations for deepening the theoretical and methodological foundations of socio-economic efficiency in the digital economy, improving performance through the integration of digital technologies in the service sector, leveraging digital solutions for the socio-economic development of regions, and refining digitalization processes across different sectors and industries.

Tezislar mualliflar tahririda bosilmoqda. Ularda keltirilgan raqamlar, faktlar, xulosa va tavsiyalarga mualliflar ma’suldir. Ularning ayrim fikrlari tashkiliy guruh qarashlariga to’g’ri kelmasligi mumkin.

ISBN: 978-9910-350-35-1

6801

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2026

Xulosa va amaliy takliflar

2016–2024-yillarda O‘zbekistonda elektron tijorat savdosi hajmi va chakana savdo tovar aylanmasi sezilarli darajada oshgan. Ekonometrik tahlilda ular o‘rtasida musbat bog‘liqlik aniqlandi. Samarqand viloyatida elektron savdo platformalaridan foydalanishni kengaytirish, raqamli infratuzilmani rivojlantirish va hududiy statistik ma’lumotlarni takomillashtirish zarurligi aniqlandi.

Samarqand viloyatida mazkur masalani chuqurroq o‘rganish uchun hududiy chakana savdo aylanmasi bilan bir qatorda elektron to‘lovlar, internetdan foydalanish imkoniyati, faol savdo korxonalari soni va raqamli savdo kanallaridan foydalanish ko‘rsatkichlarini ham tahlil qilish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, “Elektron tijorat savdo hajmi (yillik),” https://siat.stat.uz/data/2833/

[2] O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, “Chakana savdo tovar aylanmasi (yillik),” https://siat.stat.uz/data/2704/

[3] World Bank, “Individuals using the Internet (% of population) — Uzbekistan,” World Development Indicators. [Online]. Available: https://data.worldbank.org/indicator/IT.NET.USER.ZS?locations=UZ

[4] K. B. Otamurod o‘g‘li, “O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida chakana savdo xizmatlarini rivojlantirish,” Научный Фокус, vol. 3, no. 33, pp. 190–197, 2026.

[5] N. Ergasheva and D. Axrarova, “Elektron tijoratning milliy iqtisodiyot va aholi daromadlariga ta’siri: 2020–2025 yillar tahlili,” in Proc. Scientific Practical Conference, vol. 1, no. 1, pp. 96–99, Nov. 2025.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ALOQA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Nazarov Sanjar Nasridinovich-
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishi jarayonida aloqa xizmatlarining o‘rni hamda ushbu sohada iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo‘llari tadqiq etilgan. Zamonaviy telekommunikatsiya texnologiyalari (5G, IoT, bulutli texnologiyalar) transformatsiyasining iqtisodiyot tarmoqlariga ta’siri tahlil qilinib, aloqa korxonalari faoliyatining samaradorlik ko‘rsatkichlarini yuksaltirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Raqamli iqtisodiyot, aloqa xizmatlari, telekommunikatsiya, iqtisodiy samaradorlik, AKT infratuzilmasi, innovatsiyalar, raqamli transformatsiya.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль коммуникационных услуг в формировании и развитии цифровой экономики и пути повышения экономической эффективности в этой сфере. Анализируется влияние трансформации современных телекоммуникационных технологий (5G, IoT, облачные технологии) на экономические сектора, а также разрабатываются научно-практические предложения по повышению эффективности коммуникационных предприятий.

Ключевые слова: цифровая экономика, услуги связи, телекоммуникации, экономическая эффективность, ИКТ-инфраструктура, инновации, цифровая трансформация.

Abstract. This article examines the role of communication services in the formation and development of the digital economy, as well as ways to enhance economic efficiency within this sector. It analyzes the impact of the transformation of modern telecommunication technologies (5G, IoT, cloud technologies) on various economic sectors and develops scientific and practical proposals for improving the efficiency of communication enterprises.

Keywords: digital economy, communication services, telecommunications, economic efficiency, ICT infrastructure, innovations, digital transformation.

Bugungi kunda jahon xo‘jaligida kechayotgan global transformatsiyalar bevosita iqtisodiyotning raqamli platformalarga ko‘chishi bilan bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasida ham raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan. Aloqa xizmatlari bozori yuqori dinamikaga ega bo‘lib, u nafaqat aholining muloqotga bo‘lgan ehtiyojini qondiradi, balki biznes jarayonlarini optimallashtirish, tannarxni kamaytirish va mehnat unumdorligini oshirish orqali mamlakat yalpi ichki mahsuloti (YIM) o‘sishiga bevosita hissa qo‘shadi. Shu sababli, raqamli muhitda aloqa xizmatlarini rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish mexanizmlarini tadqiq etish dolzarb hisoblanadi.

Aloqa xizmatlari samaradorligini baholashda amalda bir necha guruh ko‘rsatkichlardan foydalaniladi. Birinchi guruh moliyaviy ko‘rsatkichlardan iborat bo‘lib, unga xizmat hajmi, daromad, foyda, rentabellik va xarajatlar qaytimi kiradi. Bu ko‘rsatkichlar tarmoqning pul ifodasidagi natijasini ochib beradi. Masalan, rentabellik xarajatlar yoki aktivlar hisobiga qancha foyda olinganini bildiradi. Xarajatlar qaytimi esa 1 so‘m xarajatga qancha xizmat hajmi to‘g‘ri kelishini ko‘rsatadi. Lekin moliyaviy ko‘rsatkichlar xizmat sifati, tarmoq barqarorligi va texnik quvvatlardan foydalanish holatini to‘liq aks ettirmaydi.

Ikkinchi guruh mehnat ko‘rsatkichlari bilan bog‘liq. Mehnat unumdorligi aloqa xizmatlari hajmining xodimlar soniga nisbati orqali aniqlanadi. Raqamli boshqaruv, avtomatlashtirilgan billing tizimlari, masofaviy texnik monitoring va mijozlarga

xizmat ko‘rsatishning elektron shakllari rivojlangan sari bitta xodimga to‘g‘ri keladigan xizmat hajmi ortishi mumkin. Biroq aloqa tarmog‘i kapital sig‘imi yuqori bo‘lgan soha hisoblanadi. Shu sabab mehnat unumdorligini yakka holda asosiy mezon sifatida olish to‘g‘ri emas. Xodimlar soni kam, lekin texnik xarajatlar yuqori bo‘lgan holatda mehnat unumdorligi o‘sishi umumiy samaradorlik oshganini anglatmasligi mumkin.

Uchinchi guruh kapital va infratuzilma ko‘rsatkichlarini qamrab oladi. Fond qaytimi, fond sig‘imi, tarmoq quvvatidan foydalanish darajasi, optik tolali aloqa tarmoqlari va baza stansiyalarining iqtisodiy natijasi shu guruhga kiradi. Aloqa xizmatlarida asosiy fondlar xizmat yaratishning markaziy omili bo‘lgani uchun kapital qaytimi alohida tahlil qilinadi. Masalan, yangi uskunalar, server quvvatlari yoki baza stansiyalari o‘rnatilgandan keyin xizmat hajmi, internet tezligi, qamrov va abonentlar soni ortmasa, investitsiya va kapitaldan foydalanish samaradorligi past baholanadi.

To‘rtinchi guruh investitsion ko‘rsatkichlar bilan ifodalanadi. Investitsiya hajmi, investitsiya qaytimi, modernizatsiya hisobiga xizmat hajmining o‘sishi, yangi texnologiyalar joriy etilishi natijasida daromadning o‘zgarishi ushbu guruhga kiradi. Aloqa xizmatlarida investitsiyaning natijasi ko‘pincha darhol emas, ma’lum vaqt o‘tib ko‘rinadi. Shu bois investitsiya samaradorligini baholashda faqat kiritilgan mablag‘ hajmi emas, balki uning xizmat hajmi, sifat, qamrov va xarajatlar tarkibiga ta’siri baholanishi lozim.

Beshinchi guruh sifat va iste’molchi ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga oladi. Internet tezligi, tarmoqning ishlash vaqti, uzilishlar soni, mijozlar shikoyatlari, murojaatlarga javob berish tezligi va abonentlar qoniqishi aloqa xizmatlarida iqtisodiy natijaning barqarorligiga kuchli ta’sir qiladi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) broadband statistikasi ham keng polosali aloqani baholashda qamrov, tezlik, texnologiya, foydalanish intensivligi va sifatga oid ko‘rsatkichlarni alohida ajratadi[112]. Bu holat aloqa xizmatlarida sifat indikatorlarini iqtisodiy samaradorlik tizimidan ajratib qo‘yish mumkin emasligini ko‘rsatadi.

1-jadval

Aloqa xizmatlarida mavjud iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari va ularning baholash imkoniyatlari

Ko‘rsatkich guruhi	Asosiy ko‘rsatkichlar	Iqtisodiy mazmuni	Cheklangan jihati
Moliyaviy ko‘rsatkichlar	Daromad, foyda, rentabellik, xarajatlar qaytimi	Aloqa xizmatlaridan olingan pul natijasi va xarajatlar qaytimini ko‘rsatadi	Tarmoq sifati, uzilishlar va mijoz qoniqishini to‘liq aks ettirmaydi

[112] OECD. Broadband Statistics. OECD Digital Economy Papers and statistical database materials, 2024–2025.

Mehnat ko‘rsatkichlari	Mehnat unumdorligi, bir xodimga to‘g‘ri keladigan xizmat hajmi	Xodimlar faoliyatining natijadorligini baholaydi	Kapital sig‘imi yuqori bo‘lgan tarmoqda yakka holda yetarli emas
Kapital ko‘rsatkichlari	Fond qaytimi, fond sig‘imi, texnik quvvatdan foydalanish	Asosiy vositalar va infratuzilmaning xizmat yaratishdagi qaytimini bildiradi	Xizmat sifati va texnologik eskirish darajasi alohida hisobga olinmasa, baho to‘liq bo‘lmaydi
Investitsion ko‘rsatkichlar	Investitsiya hajmi, investitsiya qaytimi, xizmat hajmi o‘sishi	Kiritilgan kapitalning iqtisodiy natijaga ta’sirini aniqlaydi	Aloqa tarmog‘ida investitsiya natijasi kechikib namoyon bo‘lishi mumkin
Sifat va iste’molchi ko‘rsatkichlari	Internet tezligi, tarmoq barqarorligi, uzilishlar, mijoz qoniqishi	Iste’molchi nuqtayi nazaridan xizmatning real qiymatini ko‘rsatadi	Moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan bog‘lanmasa, iqtisodiy samaradorlikni to‘liq ochib bermaydi

Jadvaldan ko‘rinadiki, aloqa xizmatlarida mavjud ko‘rsatkichlar muhim tahliliy vazifani bajaradi, lekin ularning har biri tarmoq faoliyatining faqat ma’lum tomonini yoritadi. Moliyaviy ko‘rsatkichlar daromad va foydani ko‘rsatadi, ammo internet sifati va tarmoq uzluksizligini aks ettirmaydi. Mehnat unumdorligi xodimlar faoliyatini baholaydi, lekin asosiy fondlar ulushi yuqori bo‘lgan telekommunikatsiya tarmog‘ida uni kapital qaytimi bilan bog‘lamasdan turib yakuniy xulosa chiqarib bo‘lmaydi. Kapital ko‘rsatkichlari texnik infratuzilma qaytimini ochadi, biroq mijozlar qoniqishi va xizmat sifati bilan to‘ldirilmasa, baholash ichki ishlab chiqarish chegarasida qolib ketadi. Investitsion ko‘rsatkichlar tarmoqning kelgusi rivojlanish imkoniyatlarini baholashga yordam beradi, lekin ularda vaqt omili va texnologik yangilanishning kechikkan natijasi inobatga olinishi kerak.

Mavjud ko‘rsatkichlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, aloqa xizmatlarining iqtisodiy samaradorligini baholashda moliyaviy natija, resurslardan foydalanish, texnik infratuzilma qaytimi, investitsiya natijadorligi va xizmat sifati yagona tizimda ko‘rilishi lozim. Aks holda tarmoqda daromad o‘sishi kuzatilgani holda xizmat sifati pasayishi, yoki texnik infratuzilma kengaygani holda xarajatlar qaytimi sust bo‘lishi mumkin. Shu sabab keyingi qismda aloqa xizmatlari uchun integral iqtisodiy samaradorlik indeksini ishlab chiqish zarurati yuzaga keladi. Bunday indeks mavjud ko‘rsatkichlarni birlashtirib, tarmoq samaradorligini xarajat, mehnat, kapital, investitsiya va sifat mezonlari asosida kompleks baholash imkonini beradi.

Aloqa xizmatlarida iqtisodiy samaradorlikni baholashda mavjud ko‘rsatkichlar tarmoq faoliyatining alohida tomonlarini ochib beradi, biroq ularni yakka holda

qo‘llash orqali umumiy natijaga to‘liq baho berish qiyin. Xizmat hajmi o‘sishi tarmoqda iqtisodiy faollik kuchayganini bildiradi, lekin ushbu o‘sish qanday xarajatlar, qanday texnik quvvatlar va qanday sifat darajasi hisobiga yuzaga kelganini ko‘rsatmaydi. Rentabellik moliyaviy qaytimni ifodalaydi, ammo internet tezligi, tarmoq barqarorligi, mijozlar qoniqishi yoki infratuzilma yuklanishini baholamaydi. Mehnat unumdorligi xodimlar faoliyatining natijadorligini ko‘rsatadi, lekin kapital sig‘imi yuqori bo‘lgan telekommunikatsiya tarmog‘ida asosiy fondlar qaytimi va investitsiya natijadorligi bilan birgalikda talqin qilinmasa, xulosa bir tomonlama bo‘lib qoladi. Shu sabab aloqa xizmatlarining iqtisodiy samaradorligini kompleks baholash uchun mavjud ko‘rsatkichlarni birlashtiruvchi integral yondashuv zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. G‘affarova G.G‘. Axborotlashgan jamiyatdan raqamli jamiyat sari: falsafiy tahlil // O‘zbekiston Milliy axborot agentligi rasmiy veb-saytining ilmiy bo‘limi (elektron jurnal). - Toshkent, 2020. Sentyabr
2. Davlatov S.S., Shonazarov K.E. Xizmat ko’rsatish sohasini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari va ushbu sohani rivojlantirish yo‘nalishlari. Ilm-fan va innovatsiya ilmiy-amaliy konferensiyasi, 48-50 betlar. in-academy.uz/ index.php/si
3. Ғуломов С.С., Алимов Р.Х., Лутфуллаев Х.С ва бошқалар. Ахборот тизимлари ва технологиялари. Тошкент.: “Шарқ”, 2000 й. 592 б.
4. Миллий иқтисодда ахборот тизимлари ва технологиялари: Олий ўқув юртлари учун қўлланма. Муаллифлар Р.Х.Алимов, Б.Ю.Ходиев, Қ.А.Алимов ва бошқалар.; С.С.Ғуломов умумий таҳрири остида. – Т.: “Шарқ”, 2004.-320 б.
5. Голубицкая Е.А. Экономика связи: учебник для студентов вузов / Е.А. Голубицкая; — М.: ИРИАС, 2006. - 488 с. ISBN 5-93592-020-4

	oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari	
Nazarov Sanjar Nasridinovich	Aloqa xizmatlari tizimini rivojlantirishda ilg‘or xorijiy tajribadan samarali foydalanish zarurati	223
Ahmedov Shohjahon	Omnikanal marketing samaradorligini baholashda kanallararo ko‘rsatkichlarning ahamiyati	227
Mamatkulova Shoira Djalolovna	Merchendayzing samaradorligini baholashning iqtisodiy mexanizmlari va ko‘rsatkichlari	230
Abdinazarov Suhrobbek Bekmurod o‘g‘li F.U.Anarbayeva	Raqamli texnologiyalardan foydalanish asosida chakana savdo samaradorligini oshirish: elektron tijoratning ta’sirini ekonometrik baholash	235
Nazarov Sanjar Nasridinovich	Raqamli iqtisodiyot sharoitida aloqa xizmatlarini rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘llari	238

“RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA IJTIMOIY-IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH MASALALARI”

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MATERIALLARI TO’PLAMI

(I-QISM)

(2026 yil 6-noyabr)

“STAP-SEL” MChJ. nashriyoti.
Samarqand - 2026.

ISBN: 978-9910-350-35-1

Tasdiqnoma № 033337 (27.07.2022)
© **“STAP-SEL” MChJ.** nashriyoti,
Samarqand-2026

6801

Qog‘oz bichimi A5, 60x84 1/16, Ofset qog‘ozi.
“Times New Roman” garniturasi.
Nashr bosma tabog‘i 15,62
Buyurtma № 0194/26. Adadi 30 nusxa

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining matbaa bo‘limida chop etildi.
LICENSE № 025316.
REESTR № X-119112.
Manzil: Samarqand shahar, Shoxrux ko’chasi 60-uy.